

**POLISEMIYA HODISASI TADQIQI XUSUSIDA***Ilmiy rahbar: A. M. Turobov**N.Nurullayeva**Samarqand davlat chet  
tillar instituti magistranti*

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada tilshunoslikda muhim semantik hodisalardan biri bo'lgan polisemiya masalasi tahlil qilinadi. Polisemiya — bir leksemaning bir nechta o'zaro bog'liq ma'nolarni ifodalash xususiyati bo'lib, u tilning rivoji va boyishida muhim o'rin tutadi. Tadqiqotda polisemik birliklarning yuzaga kelish sabablari, ularning semantik tuzilishi hamda kontekstga bog'liq holda ma'no farqlanishi masalalari yoritilgan. Shuningdek, polisemiya va omonimiya hodisalari o'rtasidagi farqlar ilmiy manbalar asosida izohlanadi. O'zbek tilidagi polisemik so'zlardan namunalar keltirilib, ularning nutqdagi funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari leksik-semantik tadqiqotlar, til o'qitish metodikasi hamda tarjimashunoslik sohalari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

**KALIT SO'ZLAR:** polisemiya, ko'p ma'nolilik, leksik ma'no, semantika, polisemik so'zlar, omonimiya, kontekst, o'zbek tili, leksik-semantik tahlil.

Polisemiya til tizimiga xos bo'lgan, sof lingvistik tabiatga ega hodisa bo'lib, bitta lisoniy birlikning (asosan leksemaning) o'zaro ichki semantik aloqaga ega bo'lgan bir nechta ma'nolarni ifodalash qobiliyatini anglatadi. Ushbu hodisa tilning semantik tizimi, ya'ni lug'aviy ma'nolar strukturasining ichki qonuniyatlari asosida shakllanadi va rivojlanadi. Polisemiya til tashqarisidagi ekstralingvistik omillarga tayanmasdan, bevosita tilning o'ziga xos rivojlanish mexanizmlarini aks ettiradi.

Tilshunoslikda polisemiya hodisasi semasiologiyaning markaziy masalalaridan biri sifatida baholanadi. Chunki u til birliklarining semantik sig'imi, ma'no kengayishi, ma'no ko'chishi va semantik differensiallashuv jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan shu jihati bilan polisemiya so'zning ichki semantik strukturasi doirasida tadqiq etiladi.

Polisemiya hodisasiga dastlab mantiqiy-matematik yo'nalish vakillari, xususan, "akademik semantika" oqimi doirasida yondashilgan. Ushbu yo'nalishning yetakchi namoyandalardan biri amerikalik olim R.Karpap bo'lib, u polisemiya masalasini asosan formal-mantiqiy nuqtai nazardan talqin etgan. Shuningdek, lingvist-matematiklar ham so'zlarning ko'p ma'noliligiga o'z qarashlarini bildirar ekanlar, asosan mashina tarjimasi muammolarini hal etishga e'tibor qaratganlar. Zero, avtomatik tarjima jarayonida polisemiya muhim qiyinchiliklardan biri sifatida

namoyon bo'ladi. Shu bois mazkur yo'nalish vakillari til birliklarini bir ma'nolilashdirish g'oyasini ilgari surganlar.

Biroq real til tizimida mutlaq bir ma'nolilikka asoslangan til mavjud emas va bunday tilni sun'iy ravishda yaratish ham amalda imkonsizdir. Bu holatni lingvist-matematik E.Delamemam to'g'ri anglab, so'zlarning ko'p ma'noliligini tilning obyektiv xususiyati sifatida qabul qilish va uni ilmiy jihatdan o'rganish zarurligini ta'kidlagan.

Polisemiya hodisasini sof lingvistik nuqtai nazardan talqin etish esa fransuz semasiologi M.Bréal faoliyati bilan bog'liqdir. Aynan shu yondashuvdan so'ng polisemiya masalasiga tilshunoslar tomonidan turli nazariy qarashlar ilgari surila boshladi va mazkur hodisa mustaqil lingvistik muammo sifatida keng miqyosda tadqiq etila boshlandi.

Polisemantik so'z ma'nolari tasodifiy yoki mexanik yig'indi emas, balki yagona semantik markaz (yadro ma'no) atrofida shakllangan va o'zaro paradigmatic munosabatda bo'lgan ma'nolar tizimidir. Bu holat polisemiya hodisasining sof lingvistikligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Polisemiya til tizimining iqtisodiylik tamoyiliga asoslanadi. Ya'ni til cheklangan miqdordagi lisoniy birliklar orqali cheksiz ma'nolarni ifodalashga intiladi. Shu nuqtayi nazardan, polisemiya tilning funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim mexanizm hisoblanadi. Agar har bir yangi tushuncha uchun alohida so'z yaratilganida, tilning ishlatilish samaradorligi sezilarli darajada pasaygan bo'lar edi.

Rus tilshunosligi tarixida muhim o'rin tutgan L. A. Potebnya so'z ma'nosi masalasida shunday qarashni ilgari suradiki, agar bir shakl doirasida ikki yoki undan ortiq ma'no mavjud bo'lsa, u holda ularni bitta so'z emas, balki alohida-alohida so'zlar sifatida baholash lozim. Shundan kelib chiqib, u polisemantik birliklarni omonim so'zlar bilan bir qatorda ko'radi.

L.V.Shcherba dastlab ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlab, forma ham mustaqil ifoda birligi ekanini asos sifatida ko'rsatadi. Biroq keyingi tadqiqotlarida u bu nuqtayi nazardan chekinadi va amaliy tahlillarda polisemantik so'zlarning ichki semantik yaxlitligini e'tiborga olib, ularni omonimiyadan farqli hodisa sifatida talqin qiladi.

Polisemiya hodisasi faqatgina ko'p ma'nolilik sifatida emas, balki ma'nolar o'rtasidagi ichki semantik bog'liqlik bilan belgilanadi. Aynan shu ichki bog'liqlik uni omonimiyadan farqlaydi. Omonimiyada fonetik shakl bir xil bo'lsa-da, ma'nolar o'rtasida tarixiy va semantik aloqa mavjud bo'lmaydi, polisemiya esa yagona leksemaning semantik rivoji mahsulidir.

Bu jihatdan qaralganda, polisemiya sof lingvistik mezonlar semantik umumiylik, tarixiy taraqqiyot va paradigmatic bog'lanishlar asosida aniqlanadi. Kontekst faqat

ma'noning aktualizatsiyasiga xizmat qiladi, ammo polisemiya hodisasining o'zini yuzaga keltirmaydi.

Polisemiya hodisasi semasiologiyada so'z ma'nosining dinamik tabiatini ochib beruvchi muhim nazariy tushunchadir. U tilning statik emas, balki doimiy harakatda bo'lgan tirik tizim ekanligini ko'rsatadi. So'z ma'nolarining kengayishi va yangi semantik qatlamlarning yuzaga kelishi aynan polisemiya orqali amalga oshadi.

Shu bois polisemiya hodisasi sof lingvistik fenomen sifatida so'z semantik strukturasi, lug'aviy birliklarning rivojlanish qonuniyatlarini va til tafakkuri o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Lingvist Noreyn ham, har bir ma'no uchun bir so'z bo'lishi kerak, degan fikrni oldinga surgan. Biroq u sal o'tmay O.Espersen tomonidan shu mulohazasi uchun tanqidiy javob olgan. O.Espersen u bilan bahslashib: Ko'p ma'noli so'zlarning mavjudligi tilning semantik boyligini ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lib, ularning yo'qligi til tizimini ifodaviy jihatdan qashshoqlashuviga olib kelgan bo'lardi [Espersen O.N., 1925: 89]. deydi. Bunda u so'zlarni yod olish, uning ma'nolarini fahmlab chiqarish, munosabatda xayolga keltira olish kabilarni nazarda tutgan bo'lishi kerak. Masalan, 4 yashar bola o'z yoshiga nisbatan so'z boyligi bo'yicha eng cho'qqiga chiqqan hisoblanar ekan. U shu davrda o'rta hisob bilan 2 ming so'zni ishlatib, 1 ming so'zni fahmlay bilarkan. Agar so'zlar ko'p ma'nolilikdan xoli bo'lsa, o'sha bola avvalgi sharoitda bera oladigan fikrini taxminan 10 ming so'z orqali berib, kamida 20 ming so'zning farqiga borishi kerak bo'lardi. Vaholanki, V.Shekspirdek buyuk dramaturg butun umri davomida 20 mingga yetar-yetmas so'z ishlata olgan edi. Ya'ni 4 yashar boladan ham so'z ishlatish qobiliyatini besh, fahmlash qobiliyatini uch yarim barobar orttirishni talab qilar ekanmiz. Aks holda, uning o'shancha marta muomala yoki ong darajasi torayishi tabiiy bo'lib qoladi. So'zning polisemantikligi so'zlarni kam miqdorda yodlab, nisbatan ko'p ifodalash va bunda fahmlashdan maksimal foydalanish imkoniyatini berar ekan. Bu boshqa tilni egallashda ham ancha qulaylikni yuzaga keltiradi va tilning eng yaxshi sifatlaridan hisoblanadi. Shu bois R.A.Budagov so'z miqdorining o'zi yetarli bo'lib qolmasdan, u albatta sifat jihatidan ham o'zgarishga uchrashi, ya'ni polisemantik birlikka aylanishi lozimligini ta'kidlaydi [Будагов, 1903: 123].

So'z til sistemasining eng asosiy belgilaridan hisoblanadi va til belgisi sifatida mudom o'zining ikki jihati bilan ajralib turadi. Bu jihatlarning birini ifodalovchi deb atasak, ikkinchisini ifodalanuvchi deb nomlaymiz.

So'zning ifodalovchi jihati tovushdan, tovushlar majmuasidan iborat bo'ladi. Masalan, u so'zi bir tovushdan iborat bo'lganligi uchun uning ifodalovchisi ham yagona tovush sanaladi. Mutolaa so'zi esa ettita tovushdan iborat bo'lgani sababli uning ifodalovchi jihati tovushlar majmuasidan iboratdir.

Ko'p paytlarda so'zning ko'p ma'noliligi omonimiya hodisasi bilan chalkashtirib yuborilishi ham mumkin. Bunda shu narsa xarakterliki, so'zning ko'p ma'noliligi hodisasi har doim ma'no uzviyligini saqlaydi. Polisemantik so'z nechta ma'noga ega bo'lishidan qat'i nazar, uning tarkibidagi ma'nolar o'zaro semantik jihatdan bog'langan bo'ladi. Aynan shu xususiyat ko'p ma'noli so'zlarni omonim birliklardan farqlovchi muhim belgi hisoblanadi. Omonimlar esa til belgisi sifatida ifodalovchi jihati – ya'ni tovush tarkibi – jihatidan o'xshash bo'lsa-da, aslida mustaqil leksik birliklar bo'lib, ularning ma'nolari o'rtasida hech qanday semantik aloqadorlik mavjud emas [Шоабдурахмонов, 1980: 106-107].

Biroq polisemantik so'zlar bilan omonimiya hodisasi o'rtasida ham nisbiy aloqa mavjuddir. Chunki polisemantik so'zning ma'nolari o'rtasidagi aloqa uzilsa omonim hosil bo'ladi. Bu o'rinda so'zlarning o'zakdosh emasligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, so'z til belgisi sifatida ifodalovchi (tovush, tovushlar majmuasi) va ifodalanmish (ma'no) jihatlarining uzviy birligidan tashkil topadi. So'zning tovush tarkibi bir xil bo'lishiga qaramay, uning ma'no jihati turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Ko'p ma'nolilik (polisemiya) hodisasida bitta so'z doirasida shakllangan barcha ma'nolar o'zaro semantik jihatdan bog'langan bo'lib, ular orasida ma'no uzviyligi saqlanadi. Aynan shu uzviylik polisemantik so'zlarning muhim belgisini tashkil etadi.

Omonimiya hodisasida esa tovush tarkibining o'xshashligiga qaramay, ma'nolar o'rtasida hech qanday semantik bog'liqlik mavjud bo'lmaydi va bunday birliklar mustaqil leksik birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, polisemiya va omonimiya hodisalarini farqlashda asosiy mezon sifatida ma'nolar o'rtasidagi semantik aloqa darajasi e'tiborga olinadi.

Shu bilan birga, polisemantik so'zlar va omonimlar o'rtasida nisbiy bog'liqlik ham mavjud bo'lib, polisemantik so'z tarkibidagi ma'nolar o'rtasidagi semantik aloqa uzilgan taqdirda, u omonimlashuv jarayoniga olib keladi. Bu holatda so'zlarning o'zakdoshligi yoki o'zakdosh emasligi muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, polisemiya va omonimiya til tizimida bir-biri bilan uzviy bog'liq, ammo funksional va semantik jihatdan farqlanuvchi hodisalar sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Iespersen O.N. Markind, Nation and Individual from a linguistic Point of View, Oslo, 1925. P.89.
2. Будагов, Сравнительно семасиологические исследования, Изд. МГУ, 1903, стр.123.
3. Шоабдурахмонов ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1980, 106-107- бетлар.